



Pedagoglarning o'z- o'zini refleksiv takomillashtirish sharoitlari

Jizzax davlat pedagogika universiteti
dotsenti. **Zarmasov Sherzod.**

Annotatsiya: Maqolada pedagoglarning o'z-o'zini refleksiv takomillashtirish sharoitlari tahliliy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'z-o'zini refleksiv takomillashtirish, refleksiya, refleksiv ta'lim, farovon psixologik muhit, refleksiv jarayon, motivatsiya.

Аннотация: В статье аналитически рассматриваются условия для саморефлексивного совершенствования учителей..

Ключевые слова: рефлексивное самосовершенствование, рефлексия, рефлексивное образование, здоровая психологическая среда, рефлексивный процесс, мотивация.

Abstract: The article provides an analytical examination of the conditions for self-reflective improvement of teach

Key words: reflective self-improvement, reflection, reflective education, healthy psychological environment, reflective process, motivation

Pedagogning o'z mehnati natijalaridan qoniqmasligi hissi unda o'zining kasbiy faoliyatini o'zgartirish ehtiyojini uyg'otadi, pedagogik qiyinchiliklarning sabablarini anglash esa, o'qituvchini ularning yechimini izlashiga olib keladi va pedagogda o'zining pedagogik mahoratini rivojlantirish ustida ishlashiga ijobiy motivatsiyasining shakllanishiga ko'maklashadi.

V.A.Kan-Kalik va N.D.Nikandrov pedagogik ijodning rivojlanishi muammolarini tahlil qilib, ijodga o'rgatish imkoniyatini shuningdek ijobiy kasbiy shaxsiy motivatsiyani ta'minlash bilan bog'laydilar. O'qituvchiga u tomonidan qo'yilmagan masalarni yechish zarur bo'lganida bu "ijodiy imkoniyatni to'xtatishi, rasmiylikka olib kelishi va asosiysi hayotiy, haqiqiy ahamiyatli masalalar deyarli aniqlanmaganligicha qolishi" aniqlangan. Ixtiyoriy faoliyat jarayonida motivatsiyaning ahamiyatli roli Yu.K.Babanskiyning tadqiqotlarida o'rganilgan. U "ixtiyoriy faoliyatni optimal boshqarish qonuniyatlaridan, mazkur faoliyatning kerakli motivatsiyasi, unga ijobiy





munosabat ta'minlanmasa, belgilangan vaqtda zarur samaraga erishish mumkin emas" deb ta'kidlagan.

Shuning uchun o'qituvchiga o'z kuchiga ishonish imkoniyatini berish juda muhimdir. Pedagogik diagnostikadan o'tkazish asosida ishni tashkil etishda, o'qituvchi o'zining kasbiy qiyinchiliklarini yechishda hamkasblarining yordamlarini olishi va bir vaqtning o'zida o'zining hamkasblari uchun pedagogik tajriba manbai bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni yaratish zarur. Pedagogning hamkasblariga yordam ko'rsatishida o'z-o'zini amalga oshirish imkoniyati bilan mustahkamlangan uning muvaffaqiyatliligi, unda ijobiy his-tuyg'ularning yuzaga kelishiga ko'maklashadi va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'nalganligini oshiradi, ularni tajriba-sinov natijalari tasdiqlaydi.

Ma'lumki, ijobiy his-tuyg'ularning shakllanishi pedagogik jamoada alohida munosabatlarni: o'zaro tushunish, o'zaro yordam va hamkorlik munosabatlarini yaratish bilan bog'liq. Maktab rahbarlari o'qituvchilar pedagogik mahoratilari darajasini oshirishga intilib, ba'zan nazorat qilish metodlarini tanlaydilar, bu esa o'qituvchilarning yuqori xavotirlanuvchanliklarini tug'diradi va ijobiy his-tuyg'ularning yuzaga kelishiga hech qanday ko'maklashmaydi. Amaliyot biror-bir rahbariyat a'zosining o'qituvchining darsiga tashrif buyurishi unda kuchli tashvishlanishiga sabab bo'lishi va unga o'ylashi, dars vazifalarida diqqatini jamlashiga halaqit qilishi mumkin. Yerks-Dodson (127) qonuniga muvofiq, xavotir muvaffaqiyatli faoliyatni to'sadi va oqibatda o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini pasaytiradi, uning o'z-o'ziga bahosini pasaytiradi.

Rahbar o'qituvchiga e'tiborli munosabatda bo'lishi, u o'zini darsda qanday his qilishini bilishi, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ko'ra olishi va har bir pedagogning rivojlanishi uchun sharoitlarni mohir yarata olishi kerak. O'z vaqtidagi yordam, e'tiborli do'stona munosabatsiz ayrim pedagoglar ishga bo'lgan qiziqishni yo'qotishlari mumkin, yordam mahoratli, o'qituvchiga hurmat hissi bilan, uning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olib ko'rsatilishi kerak. Agar maktabda o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish zarurati ta'minlanmasa, pedagogika fanining hech bir darajasi rejalashtirilgan natijalarni ta'minlay olmaydi.





Shuningdek, pedagogik jamoada farovon psixologik muhitni shakllantirishga to'xtalib o'tish zarur deb hisoblaymiz, ko'pgina olimlarning o'qituvchining o'z mehnatidan qoniqmasligini va o'z malakasini oshirishni istmaslikni uning yaratilmaganligiga bog'laydilar.

Rahbarning avtoritarligi jamoadagi o'zaro munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday jamoalardagi ma'naviy muhit o'qituvchini xuddi e'tiborsizlikka duchor etadi. Insonning "ijodkorligi" salbiy baho bilan so'ndiriladi. N.Rodgers ijodni "o'zini kuchaytirish" sifatida qarab, agar "shaxs o'zining ichki olamini o'rgana boshlaydigan darajada o'zini erkin his qiladigan xavfsiz ishonchli muhit yaratilsa, unda bu holatda inson o'zi shaxs sifatida o'zining rivojlanishi eng optimal yo'nalishini o'zi tanlaydi" deb ta'kidlagan.

O'qituvchilarning muhiti, hamkasbiga e'tiborli, ehtiyotkor munosabat o'qituvchida o'ziga ishonch va ishonchsizlikning, kasbiga bog'langanlik va unga nisbatan norozilik, o'zining nomukammalligidan o'sib boruvchi xavotirli hissiyotlar kurashi kechayotgan inqirozli yosh davrlari va pedagogik inqirozlar davrida ayniqsa katta ahamiyatga egadir.

Shunga ko'ra, pedagogik mahorat rivojlanishi mumkin va kerak bo'lgan bir nechta sharoitlarni sanab o'tish mumkin. Bunday sharoitlar uning professionalligini rivojlantirish uchun qulay muhitni ta'minlovchi farovon psixologik muhit va o'qituvchiga individual yondashuv hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilganga asosanib, pedagoglarning pedagogik mahoratlarini oshirish – amal qilishning optimal sharoitlarini talab etuvchi, doimiy harakatda bo'lgan, murakkab ko'p qirrali tizim ekanligi to'g'risida xulosaga kelish mumkin. Bunday tizimning rivojlanishini faqatgina tajribali rahbar boshqarishi mumkin.

Pedagogik mahoratni oshirishning refleksiv modeli mualliflari bo'lishi mumkin bo'lgan "noxushliklarning", pedagoglar o'rtasidagi kelishmovchiliklar yuzaga kelishini va jamoaviy ijodiy faoliyat jarayonida ularni yechishni taklif etuvchilarni nazarda tutadilar. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirishning shartlaridan biri, alohida refleksiv muhitni va ijodiy erkinlikni yaratish bilan bir qatorda, ular turli psixik to'siqlarni yengish bo'yicha psixoterapevtik ishlar deb hisoblaydilar.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, o'qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi. B.Z.Vul'fovning fikriga ko'ra, kasbiy refleksiya jarayonida





o'qituvchi o'zi tanlagan pedagogik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqdagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi, va «ixtiyoriy ravishda shaxsiy pedagogik mahorat zanjiri»ni hosil qiladi. Uning fikr mulohazasi L.S.Rubinshteynning pedagogik faoliyatdagi tashqi sabablarning ichki shart-sharoitlar asosida bilvosita harakati haqidagi mashhur qoidasini tasdiqlaydi.

O'qituvchi pedagogik mahoratning asosiy xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidir. Demak, refleksiv jarayonda o'qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy sifatlari mavjudmi yoki yo'qmi deb qayd etish kerak emas, balki ularning rivojlaniishni, boyib borishini, kuchayishini ragbatlantirish inobatga olinishi lozim. Ta'lim jarayoni aynan shunga xizmat qilishi kerak, qachonki bilimlar, ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina u ishlanadi.

O'qituvchining «o'z-o'zini kasbiy jihatdan har tomonlama mukammal takomillashtirishi», hamisha amalga oshadigan faoliyat emas. Shunga qaramay, o'qituvchining o'zi haqidagi deyarli har qanday fikr-mulohazasi, kasbiy refleksiyaning deyarli har bir jarayoni, kasbiy faoliyatni qiziqarli qilish uchun muhim ahamiyatga ega: chin ko'ngildan bajariladigan og'ir mehnat ham kasbiy faoliyatni osonlashtiradi, bu esa refleksiyaning mazmun mohiyati asoslaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Toshkent, "Iqtisodiyot moliya" nashriyoti, 2011 yil. Darslik. 424 bet.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan, 2004.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv metodik o'qilganma. Toshkent: 2015. – 208 bet.

